

YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY O‘ZBEK ASKIYA SAN'ATI – MA'NAVIY YANGILANISH OMILI

A.Kambarov

Farg‘ona davlat universiteti

Professor, (DSc)

O.Tojimamatova

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbek milliy Askiya san’atining tarixiy shakllanishi, ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi o‘rni, estetik va pedagogik imkoniyatlari hamda uni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati yoritilgan. Askiya – o‘zbek xalqining nodir og‘zaki ijodiy janri bo‘lib, hazil-mutoyiba va so‘z o‘yinlariga boy, badihago‘y san’at turi sifatida YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Maqolada yangi O‘zbekistonda ushbu san’atni ilmiy, nazariy va amaliy asosda chuqur o‘rganish, yoshlarga uni yetkazish, askiyachilik maktablari va ustoz-shogird an’analarini rivojlantirish zaruriyati asoslab berilgan. Shuningdek, askiya orqali yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga ta’sir qilish, milliy til va madaniyatni asrashda tutgan o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Askiya, og‘zaki ijod, so‘z san’ati, hozirjavoblik, nomoddiy madaniy meros, xalq og‘zaki ijodi, ustoz-shogird an’anasi, O‘zbek folklori, yoshlar tarbiyasi, til va madaniyat, YUNESKO, milliy san’at.

В УЗБЕКИСТАНЕ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЕ УЗБЕКСКОЕ ИСКУССТВО АСКИЯ – ФАКТОР ДУХОВНОГО ОБНОВЛЕНИЯ

Аннотация: В данной статье освещаются историческое формирование узбекского национального искусства аския, его роль в социально-духовной жизни, эстетические и педагогические возможности, а также государственная политика, направленная на его развитие. Аския — это уникальный жанр устного народного творчества узбекского народа, богатый юмором и игрой слов, включённый в Репрезентативный список нематериального культурного наследия человечества ЮНЕСКО. В статье обоснована необходимость глубокого научного, теоретического и

практического изучения данного искусства в условиях Нового Узбекистана, его передачи молодому поколению, развития школ аския и традиции «учитель — ученик». Также рассматривается влияние аския на духовное воспитание молодежи и её роль в сохранении национального языка и культуры.

Ключевые слова: Аския, устное творчество, искусство слова, находчивость, нематериальное культурное наследие, народное устное творчество, традиция учителя и ученика, узбекский фольклор, воспитание молодежи, язык и культура, ЮНЕСКО, национальное искусство.

IN NEW UZBEKISTAN, THE NATIONAL UZBEK ART OF ASKIYA IS A FACTOR OF SPIRITUAL RENEWAL

Annotation: This article highlights the historical formation of the Uzbek national art of Askiya, its role in socio-spiritual life, its aesthetic and pedagogical potential, as well as the state policy aimed at its development. Askiya is a unique genre of Uzbek oral folk art, rich in humor and wordplay, and is recognized by UNESCO as part of the Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity. The article substantiates the need for in-depth scientific, theoretical, and practical study of this art in the context of New Uzbekistan, its transmission to the younger generation, and the development of Askiya schools and the master-apprentice tradition. It also discusses the impact of Askiya on the spiritual upbringing of youth and its role in preserving national language and culture.

Keywords: Askiya, oral creativity, art of words, wit, intangible cultural heritage, folk oral art, master-apprentice tradition, Uzbek folklore, youth education, language and culture, UNESCO, national art.

KIRISH

Askiya hajviy xarakterdagi soʻz qoʻllash san'ati, koʻptalqinli nutq va soʻz oʻyiniga asoslangan oʻzbek xalqining milliy janri boʻlib asrlar davomida shakllanib kelmoqda. Askiya dunyo xalqlari orasida oʻzbek xalqiga xos boʻlgan milliy soʻz san'ati boʻlib, uning koʻpchilik ishtirokida jonli tashkil etilishi boshqa xalqlarda uchramaydi.

Askiya Oʻzbekistonda nishonlanadigan umummilliy bayramlar, ommaviy koʻngilochar tomosha va sayllar (katta va tantanali sayr-tomoshalar), turli

madaniy tadbirlarda erkaklar tomonidan ijro etiladi. Askiya qiluvchilar “askiyachilar”, “askiyabozlar”, “so‘z ustalari” deyiladi. Askiyachilar askiya san'ati vositasida bir-biriga hazil-mutoyiba, so‘z o‘yini qilishadi. Tinglovchi va tomoshabinlar askiyachilarning so‘z qo‘llash mahoratidan zavqlanib kulishadi.

Askiya san'ati o‘zbek xalqining nomoddiy madaniy merosida muhim ahamiyat kasb etadi. Askiya masalasi milliy madaniyatimiz tarixida juda kam o‘rganilgan sohalardan biridir. Shuning uchun ham milliy Askiya san'ati har doim musiqashunos, san'atshunos olimlarning diqqatini o‘ziga jalb etib kelganligi sir emas. Askiya O‘zbekistonning Farg‘ona vodiysida shakllangan va tarqalgan xalq ko‘ngilochar san'ati va o‘zbek xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos janri. 2014 yilda YuNESKO Askiyani Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi. (<https://ich.unesco.org/en/RL/askiya-the-art-of-wit-00971?>).

Askiya san'atini yanada takomillashtirishda Harakatlar strategiyasi 4-ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘limida belgilab qo‘yilgan ilm-fan, ta'lim-tarbiya tizimini joriy qilishda, shuningdek, beshta muhim tashabbusning birinchi yo‘nalishi bo‘yicha yoshlarni madaniyat markazlari va san'at muassasalariga keng jalb etishda yoshlarga oid davlat siyosati hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.07.2023 yildagi PQ-222-sonli “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori¹ muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy, ma'naviy va diniy-ma'rifiy qadriyatlarini qayta tiklash va buyuk ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy madaniy merosini to‘la o‘rganish asosida fuqarolik jamiyati qurishni o‘zining strategik maqsadi qilib qo‘ygan. Ushbu vazifani bajarish yo‘llaridan biri – Markaziy Osiyoda yashab, ijod qilgan milliy Askiya san'atimiz namoyondalarining ilmiy-madaniy merosini, shuningdek, madaniy va ma'naviy hayot tarzimizga mos keladigan sog‘lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishga yordam beradigan milliy Askiya san'ati tarixi o‘rganish va uning nazariy asoslarini yanada takomillashtirish hamda amaliyotga joriy qilishning innovasion omillarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, milliy Askiya san'atining ijro yo‘llari yoshlar ijtimoiy hayotini belgilab berishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunda nomoddiy madaniy merosimiz bo‘lgan milliy Askiya san'atining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, uni keng ommaga etkazish, an'alarini davom ettirish, o‘rganish va o‘zlashtirish va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.07.23 yildagi PQ – 222-sonli “respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

uning innovasion omillarini topish, o'zbek milliy Askiya san'ati nazariyasini o'rganishda viloyatdagi askiya va qiziqchilarning ijrolarini solishtirish va o'xshash tomonlarini ilmiy tahlil qilish hamda ularni targ'ib qiluvchi tadbirlarni tashkillash zarur. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, ta'lim sohasi ham tobora integrasiyalashtirilib, bir qator hamkorliklar yo'lga qo'yilmoqda. Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy masalalarni hal qilish, xalqimiz va insoniyat oldida turgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning echimini topishda Askiya san'atidan oqilona foydalanish bugungi kunda ijtimoiy zaruriyatdir. Shuningdek, yangi O'zbekistonda kamol topayotgan yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish va ularning so'z san'atiga bo'lgan munosabatini o'zgartirish masalalariga ham e'tibor qaratish lozimdir. "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi"². Bunda nomoddiy madaniy merosimiz bo'lgan milliy Askiya san'ati nazariyasi va tarixini o'rganishning innovasion omillarini ishlab chiqish hamda ularning sehrli va jozibali so'z ijrolaridan unumli foydalanish zarur.

Professional askiyachilar noyob talantga ega bo'lishadi. So'zga ustalik iste'dodini sahnada askiya aytishga bag'ishlaydilar. O'zbek xalqi orasida bunday qobiliyatli talaygina, lekin professional askiyachilar yuzdan ortiq xolos (O'zbekistonda yashab o'tgan ustoz askiyachilar nazarda tutilgan). Ayni vaqtda askiyachi sifatida sahnaga chiqayotgan mashhur so'z ustalari esa juda ozchilikni tashkil etadi. Yuzdan ortiq so'z ustalari esa qiziqchilik yo'nalishida ijod qilib, sahnaga chiqmoqda.

Talantning asosi mehnat va mashq hisoblanadi. Sahnada tajriba orttirish, amaliy mashqlar askiyachilar uchun juda zarurdir. Chunki askiya so'zlovchining so'z qo'llash mahoratiga bog'liq san'at turidir. Askiyachi so'z qo'llash mahoratini O'zbekistondagi mavjud askiya va qiziqchilik mahorat maktablarida, to'garaklarda va sahnada oshirib boradi. Birdaniga katta sahnaga minglab tomoshabinlar oldiga chiqib, o'zini va gaplarini yo'qotib qo'ymaslik uchun anchagina mashq qilish va tajriba orttirish talab etiladi. Taniqli askiyachilar shu tariqa askiyani sahnada minglab tinglovchilar oldida ijo etadilar.

Askiya so'zga chechan, hozirjavob, hazil-mutoyibaga moyil, topqir va badihago'y kishilarning bir-biri bilan so'z o'yini qilishiga asoslangan bellashuv, zehnlr sinovi hisoblanadi³. Askiya bellashuvida yumor yaratish va bir-birini

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat. 2008. –B. 83

³ Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –Toshkent: Musiqa. 2010. –B. 315-319

mot qilish muhim sanaladi. Raqiblar navbat bilan bir-biriga gap bilan hujum qiladi va bir-birini mot qiladilar. Askiyaning shu xususiyatini shaxmatga o'xshatish mumkin. Ya'ni askiya va shaxmat aqliy musobaqa sanaladi. Tildagi so'zlar miqdori shaxmatdagi donalar va kataklar kabi sanoqli bo'lsa-da, askiyadagi so'z o'yinlari kombinasiyasi shaxmatdagi kombinasiyalar singari cheksizdir. Askiyada ham shaxmatdagi singari xilma-xil yurishlar qilinadi, raqiblariga kutilmagan zarbalar beradi va bir-birini mot qiladi.

Askiya o'zbek folklorigagina xos janr. Bu janr boshqa xalqlar folklorida uchramaydi. Shu jihatiga ko'ra askiya o'zbek folklorining janrlar tizimida alohida diqqatni tortadi hamda o'zbek folklorining o'ziga xos tarkibini belgilaydi⁴. Erkin Vohidov ham shakldosh so'zlar san'ati tuyuq hamda askiya, so'z o'yini san'ati xalqimizga xosligini alohida ta'kidlaydi⁵. Biroq har bir xalqda hazil-mutoyiba, aytishuv, askiya mavjudligini inkor etmasligimiz lozim.

Askiya janri bo'yicha deyarli yozma adabiyotlar kam. Mazkur janr bugungi kungacha ustoz-shogird an'anasiga tayangan holda bugungi kungacha etib keldi. Shunday bo'lsa-da, o'zbek milliy askiya san'ati bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligini ta'kidlash o'rinlidir. Jumladan, ma'rifat jonkuyari bo'lgan hassos shoir Cho'lpon o'zining 1936 yilda "Guliston" jurnalida e'lon qilingan "Qiziqalar" maqolasida aynan ana shu masalaga to'xtalib, vaqt kutib turmasligini, mashhur qiziqalarning har biri xalq teatrlarining namoyon bo'lish shakli ekanligini alohida uqtirgan, tez orada ular xalq xotirasidan o'chib ketish xavfi ostida ekanidan ogohlantirgan edi.

Bugungi kunda milliy Askiya san'ati yo'nalishida "Ustoz-shogird" an'alarini yanada rivojlantirish, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash, YuNESKOning representativ ro'yxatiga kirgan o'zbek xalq og'zaki ijodining Askiya san'ati bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, Askiya san'atining payrov, qofiya, bahri-bayt, afsona, radif, aytishuv, rabbiya, gulmisiz, bo'lasizmi, o'xshatdim kabi noyob shakllarini asrash, iste'dodli so'z ustalarining ijod fondini va maxsus adabiyotlarni yaratish hamda o'zbek milliy askiya va qiziqchilik san'atini viloyatlarda aholi orasida mazkur san'at turini targ'ib etish bo'yicha gastrol safarlarini yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Askiya adabiyot, san'at, til va madaniyat ilmi bilan bevosita aloqador hisoblanadi. "Til – kishilar o'rtasida, jamiyatda o'zaro fikr almashishning muhim vositasi"⁶. Shu bois ushbu so'z san'ati bo'lgan Askiya janrida o'ziga xos

⁴ Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –Toshkent: Musiqa. 2010. –B. 315

⁵ Vohidov E. So'z – zabarjad, so'z – gavhar, oltin. Asarlar 4-jild. –Toshkent: Sharq. 2016 –B. 287

⁶ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 8-tom. 2004. –B. 428

sahna asarlari yaratish hamda uni adabiyot, san'at, til va madaniyat ilmi mushtarakligida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Askiya o'zbek folkloriga xos janr. Bu janr boshqa xalqlar folklorida uchramaydi. Shu jihatiga ko'ra askiya o'zbek folklorining janrlar tizimida alohida diqqatni tortadigan hamda o'zbek folklorining, jumladan, so'z san'atining o'ziga xosligini belgilaydi.

Har bir xalqda hazil-mutoyiba, aytishuv, Askiya mavjudligini inkor etmasligimiz lozim. Masalan, qozoq va qirg'iz xalqlarida "aytis" janri, evropa xalqlaridagi intermediyalar hozirjavoblik bilan ijro etiladi. Ba'zan latifalarda askiyaga o'xshash vaziyatlar ham uchraydi. Ammo Askiya boshqa xalqlar san'atida muayyan xususiyatlarga ega alohida janr sifatida uchramaydi.

Dunyo xalqlari orasida o'z qarashlarini, munosabatini askiyadek so'z san'atining eng mo'ljaz nuqtalarida san'atkorona ifodalash bobida xalqimizdek zakiy-zukko xalq, tilimizdek ifoda imkoniyatlari cheksiz til bu jahon ayvonida kamdan-kam! Askiya san'ati o'zbek tilining go'zalligi va betakrorligini namoyon etadi.

O'zbek milliy askiya san'ati juda katta hayotiy tajriba, bilim va ijodkorlikni, farosat, aql-idrok, ziyraklik bilan fahmlash, savollarga o'rinli, munosib javob berishni talab qiladigan so'zamollikdir. Askiya san'atida so'zga chechan, hozirjavob, hazil-mutoyibaga moyil, zakovatli, topqir, badihago'y kishilar bir-biriga "Raqib" sifatida qarama-qarshi turib so'z o'yini qiladilar.

Kishilik hayotda, o'tirishlarda, to'y-tomoshalarda, turli sayl va bayramlarda asrlar davomida ijro etib kelinayotgan askiya so'z san'ati o'zbek xalqining milliy jihatlarini, xususan, o'zbek tilining o'ziga xosligini namoyon etadi. Odamlarimiz azaldan zakiy, nozikfahm va hozirjavob bo'lgani bois askiya bizda alohida janr sifatida rivojlanib, san'at darajasiga ko'tarilgan. Kulgu qo'zg'atuvchi so'z va qochirimlar, hozirjavoblik va zakiylikni namoyon etuvchi so'z o'yinlari, hazil-mutoyibalar, askiya va payrovlar yuz yillar mobaynida hayotiy tajribalar negizida yaratilgan.

So'zamollik va qochiriqlarga moyillik o'zbek xalqiga xosdir. Bu xaqda L.Bat "Unitilmas uchrashuvlar" kitobida shunday yozadi: "O'zbek poeziyasi hikmatli ma'nolarga boyligi, yashirin fikr sehri bilan ajralib turadi. So'zamollik o'zbeklarga xos xususiyatlardan biridir". Turli xalq vakillari o'zbek askiyabozlarining san'atiga, bu janrning betakror ifoda shakli, eksprompt, ijrochilik xususiyati va boshqa antiqa jihatlariga lol qolganliklari haqida ma'lumotlar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 183 b.
2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 456 b.
3. Vohidov E. So'z – zabarjad, so'z – gavhar, oltin. Asarlar. 4-jild. – Toshkent: Sharq, 2016. – 372 b.
4. Cho'lpon. "Qiziqqlar" // Guliston jurnali, 1936-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-iyuldagi PQ-222-sonli qarori: "Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B. 428.
7. UNESCO rasmiysi. Askia, the art of wit – Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity (2014). URL: <https://ich.unesco.org/en/RL/askiya-the-art-of-wit-00971>
8. Qiziqchilik va Askia san'ati haqida ilmiy-amaliy maqolalar to'plami. – Farg'ona: "Istiqlol", 2021.
9. Mahmudov H. O'zbek xalqining so'z san'ati va uning ijtimoiy mohiyati. – Toshkent: Fan, 2012.
[ich.unesco.org \(https://ich.unesco.org/en/RL/askiya-the-art-of-wit-00971\)](https://ich.unesco.org/en/RL/askiya-the-art-of-wit-00971)
Askia, the art of wit